

O'ktayeva Yulduz

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi.

RAQAMLI O'ZBEKISTON – RAQAMLI KELAJAK

Uktayeva Yulduz

Student of the University of world economy and diplomacy.

DIGITAL UZBEKISTAN – DIGITAL FUTURE

Уктаева Юлдуз

Студент университета мировой экономики и дипломатии.

ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН – ЦИФРОВОЕ БУДУЩЕЕ

Kalit so'zlar: elektron hukumat, e-sud, e-ekspertiza, identifikatsiya, forensics, genom baza, Raqamli O'zbekiston, elektron platforma.

Barcha davrlarda davlat yangiliklar yaratish, ilm-fanga homiylik qilish ortidan rivojlanishga yetgan. Bugungi texnologiyalar rivojlangan asrda yashar ekanmiz, davlat boshqaruvida ham raqamli texnologiyalarning o'zni tobora ortib bormoqda, shunday ekan, ushbu sohani yanada jadallashtirish davlat siyosatini bir qismiga aylanib ulgurgan deyish mumkin. Xususan, hukumatni raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. “Elektron hukumat” loyihasi esa shunday ishlardan biriga misoldir. Ushbu loyihalar nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida ham kun mavzusi bo'lib kelmoqda. Misol uchun, Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti “Regional Dialogue” xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti vakolatxonasi bilan hamkorlikda 14-dekabr kuni xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan “Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada hukumatni elektronlashtirishda yangi loyihalar, shuningdek, ularning afzal taraflari muhokama qilindi.

Raqamlashtirish siyosati haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo, raqamlashtirish fuqarolarga istalgan joyda, istalgan vaqtda hamda istalgan qurilmada davlat xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarga vaqtni va xarajatlarni tejashda, ortiqcha ovoragarchilikni keltirib chiqarmaslikka xizmat qiladi.

Raqamlashtirish siyosati ancha ilgari rejalashtirilgan bo'lsa-da, harakatlar sust borayotgan bir vaqtda, butun dunyoda pandemiya keng tarqalishi ushbu siyosat jadal rivojlanishga turtki bo'ldi. Xususan, barcha qatori davlat xizmati ham onlayn ish faoliyatiga o'tdi, shu sababdan davlat xizmatlarni ko'rsatuvchi platformalar ishga tushirila boshladi. Bundan tashqari, ko'plab Yevropa

davlatlarida sud jarayonlari optimallashtirildi. Shu qatori, O‘zbekistonda ham e-sud platformasi ishga tushib, bu orqali fuqarolarga sudga onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Raqamlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan loyihalardan eng yirigi sifatida “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini e’tirof etish mumkin. Ushbu dastur orqali 2030-yilga qadar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa barcha sohalarni elektronlashtirish loyihalari qamrab olingan. Xususan, 2022-yil 1-kvartaliga qadar barcha turdagi to‘lovlar yagona billing tizimi orqali qamrab olinishi, buni nazorat qilishni ham yengillashtiradi deyish mumkin.

Shuningdek, dasturning e’tiborli jihati Elektron hukumat tizimining ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash yagona markazining ishga tushirilishi elektron hukumatning markazlashuvi va faoliyat va davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasi qamrovining kengayishiga xizmat qiladi. Ushbu dasturda attestatsiyalash hamda identifikatsiyalashni ham yo‘lga qo‘yish masalalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, buning bir qismi o‘laroq 2021-yil 1-yanvardan boshlab, identifikatsiyalashning yangi tizimi joriy qilib, fuqarolarga shaxsni tasdiqlovchi hujjat sifatida pasport o‘rniga ID kartalari berila boshladi. Bu esa albatta fuqarolarning ma’lumotlarini raqamlashtirishda ancha qulayliklar yaratgan, xususan, fuqarolarning soliq ma’lumotlari ham ID kartalar orqali aniqlanish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa ortiqcha ovoragarchilikni kamaytiradi. Bundan tashqari, attestatsiyalarni, diplomni va ma’lumotni tasdiqlovchi hujjatlarni elektronlashtirish loyihasi ham ilgari surilgan bo‘lib, bunda fuqaro bir vaqtning o‘zida an’anaviy ma’lumot hujjatiga hamda uning elektron shakliga ham ega bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Albatta, bu loyihalarni amalga oshirishda ko‘plab rivojlangan davlatlarning tajribalarini o‘rganib, ular bilan hamkorlikda ishlar olib boriladi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, inson huquqlari asosiy o‘ringa qo‘yilgan bir davrda sud-huquq sohasini ham elektronlashtirish, albatta, bu sohaning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Xususan, sud-huquq tizimida sud ekspertizani elektronlashtirish uchun qaratilgan e-ekspert loyihasini aytish mumkin. Unda Sulaymonova nomidagi sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada kengaytirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti hisoblangan www.minjust.uz saytida sud eksperti sifatida kasbiy layoqati sertifikatiga ega shaxslarning ro‘yxatini shakllantirish orqali ekspertlarning shaxsini aniqlash imkoniyatini yaratilmoqda. Malakali sud ekspertiza kadrlarini shakllantirish maqsadida Koreya, Isroil kabi davlatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ekspertlarning malakasini oshirish maqsadida yuborilishi ham ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, 2020-yildan boshlab Respublika genom bazasini shakllantirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu orqali shaxslarning nohaq ayblanishining oldini olish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, murakkab masalalarni hal qilishda, shuningdek, bedarak yo‘qolgan yoxud vafot etgan shaxslarga oid ma’lumotlarni aniqlashda imkoniyatlar kengayadi.

Yana bir ahamiyatga molik masalaga to‘xtaladigan bo‘lsak, sud va huquq sohasida raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish imkoniyatiga ega malakali kadrlarni shakllantirish masalasi ham mavjud bo‘lib, buning yechimi o‘laroq, yurist kadrlar uchun Forensics Akademiyasi xalqaro ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus www.lawandforensics.com sayti orqali raqamli sud ekspertlari, huquqshunoslar, sudyalalar, texnologlar, texnik ekspertlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, professorlarni birlashtirib, advokatlarga raqamli sud ekspertizasi va texnik ekspertlarga qonun buzilishlariga oid darslar o‘tilishi aytib o‘tilgan.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va optimallashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash bugungi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Shu sababdan ko‘plab davlat o‘rtasida bu borada kelishuvlar, hamkorliklar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, raqamlashtirishni rivojlantirish jarayonida olib borilayotgan samarali ishlarni jadallashtirishda muhim turtki bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, raqamlashtirish siyosatida bugun va ertaning asosiy mavzusi bo‘lib qoladi. Texnologiya davrida yashar ekanmiz, faqat birgina texnologiyalar bilan to‘xtab qolmasdan, ularning yangi qirralarini kashf etish va uni davlatning ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy sohalarning ustuvor talabi bo‘lib qoladi. Bu esa, albatta, kelajak uchun ham texnologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.